



# Tadqiqot.uz

## ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

# 2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCE.uz

30 ИЮН  
№29

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
14-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
29-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-14**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
29-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-14**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 29-күп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор ўёналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар ўёналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН**

**1. Hakimova Mahliyo Yoqubovna**

XIX-ASR OXIRI VA XX-ASR BOSHLARIDAGI O'ZBEKISTON SAN'ATI ..... 7

**2. Xaytmetov Dilshod To`rayevich, Mamatqulova Sitora Komil qizi**

ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARIGA TA`SVIRIY YONDASHUV ..... 9



## ТАСВИРИЙ САНЪАТ ВА ДИЗАЙН

### XIX-ASR OXIRI VA XX-ASR BOSHLARIDAGI O'ZBEKISTON SAN'ATI

**Hakimova Mahliyo Yoqubovna**  
Buxoro viloyati Vobkent tumani  
15- umumta'lim maktabi  
tasviriy san'at fani o'qituvchisi  
tel: 97-852-20-28  
e-mail:hakimova@mail.ru

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek me'morchilik san'ati, san'atining tarixi va shakllanish bosqichlari haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekistonda xalq amaliy san'ati, dastgohli rangtasvir haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'zbek me'morchiligi, san'at tarixi, rangtasvir.

Me'morchilik. XIX asrda Xiva, Buxoro, Qo'qonda masjid, madrasa, maqbara kabi an'anaviy tipdagi madaniy binolar kompozitsion uslub jihatidan hashamatli bezakdor turur joylar sifatida quriladi. Bu davrda rus shahar qurilishi uslubi kirib keldi. Mustaqil reja asosida yangi Skoblev (Farg'ona) shahri bunyod etildi. Andijon, Toshkent, Samarqandda ham yangicha shahar qurilishi rivoj topdi. O'zbekiston xalq me'morchiligidagi XIX-XX asr uchun Farg'onada ikki tomonga ochiladigan darvozalar va yopiq eshiklierezalar, bezakdor devordagi taxmonlar, o'ymakor ganch va shiftning naqshdorligi, Buxoro va Samarqandda jimjimador ustunli ayvon, guldor devorlar va o'ymakor naqshlar harakterlidir. Xiva uchun esa atrofi o'rالgan ayvonli xovlilar, jimjimador yog'och o'ymakorli ustunlar, qishloq chorbog'lari mustaxkam arxitektura shakllariga taqlid qilingani bilan diqqatni tortadi. O'zbekistonning turli xududlarida ip-gazlamaga oid, yarimshoyi va shoyi gazlamalar, rangi bir xil, targ'il, rang-barang naqshli xonatlaslar to'qish keng tarqalgan. Shuningdek, bu davrda O'zbekistonda do'ppi, kiyim-kechak, so'zana, gul bosilgan gazlama, zardo'ziy gilam to'qish, terini oshlash, metalldan badiiy buyumlar yasash, zargarlik san'ati, kulolchilik san'ati rivojlangan. Naqshlar turli guldor va geometrik, epigrafik, hayvonlarning shartli belgilari, "islimi" shakllari bilan to'lib toshgan. XIX asr oxiri XX asrda O'zbekistonda xalq amaliy san'ati biroz tushkunlikka uchradi. XIX asr oxiri XX asrda paydo bo'lgan dastgohli rangtasvir I.Kazakov, S.Yudin va boshqalar ijodida etnografizm va maishiy turmushni hijjalab hikoya qilish va passiv kuzatuvchanlik bilan qayd qilinadi. XX asr me'morchiligidagi ba'zi qurilishlar avvalgi eklektik xususiyatlarni saqlab qoldi, boshqalari konstruktivizm ruxida yaratildi, uchinchilari esa masalan, arxitektor G.M.Svarichevskiy O'zbekiston fanlar akademiyasi prezidiumi binosi proektida XX asrga xos bo'lgan me'morlik shaklini O'rta Osiyo arxitekturasining harakterli xususiyatlarini o'zida saqlab bunyod etdi. 30-yillarda Toshkent, Samarqand, Andijon shaharlarini qayta qurish loyihasi tuzib chiqildi, Chirchiq singari yangi tipdagi shahar qurilishiga asos solindi. Arxitektor S.N.Popupanov tomonidan toshkentdag'i xukumat uyi singari ijtimoiy-ma'muriy binoda konstruktivizm va neoklassizm uslublari, O'rta Osiyo mahobatli me'morchiligi va o'zbek xalq qurilishi an'analari singdirib yuborildi, o'ziga xos xususiyatlaridan foydalanildi. Uy-joy qurilishida ko'p qavatli turar joy binolari shakllana boshladı. 40-yillarda ayniqsa, sanoat qurilishi shiddat bilan keng avj oldi. Shu davrla Toshkent, shuningdek Olmaliq, Bekobod kabi sanoat shaharlarining asosiy loyihasi tuzilib, yangi sanoat markazlari tashkil etildi. Arxitektor A.V.Shusev tomonidan malga oshirilgan A.Navoiy nomidagi katta opera va balet teatri binosi 40-yillarning birinchi yarmi va 50-yillar O'zbekiston me'morchiligidagi katta ta'sir qildi. Bu qurilish loyihasida klassik shakl O'rta Osiyo an'anaviy tajribalari bilan uyg'unlashgan xolatda amalga oshirilgan. 60-70-yillarda sanoatlashgan uslub qurilishiga o'tish o'z yakunini topdi. Katta-katta bloklardan tashkil topgan, sinchlardan iborat, issiq iqlim va zilzilaga chidamlı, ko'p



qavatli uylar qurilishi o'zlashtirildi. O'zbekistonda bu uslubdagi qurilishlar dastlab 60 yillarda Navoiy shahrida amalga oshirildi. 1966 yilgi zilziladan so'ng xozirgi zamон me'morchiligining yangi printsiplari Toshkent shahrini qayta tiklash va qurishda o'z aksini topdi. 60-80-yillardagi jamoa binolari me'morchiligi o'zining aniq maqsadga qaratilgan kompozitsion kengligi, shaklning mahobatliligi bilan ajralib turadi. Misol sifatida 1962-64 yillarda arxitektor V.Berezin loyihasi asosida qurilgan san'at saroyi, arxitektor I.Merportning "O'zbekiston" mehmonxonasi, F.Tursunov, R.Xayriddinovlarning O'zbekiston rassomlar uyushmasi ko'rgazmalar zali, me'mor S.Odilov, Y.Bukina, Rozanovlarning xalqlar do'stligi saroyi va me'mor V.Apivak tomonidan malga oshirilgan "Moskva" (Chorsu) mehmonxonasini olishimiz mumkin. Bu ma'muriy binolar jihozida an'anaviy xalq amaliy me'moriy bezaklari, mahobatli rangtasvir va haykaltaroshlik namunalari keng qo'llanilgan. O'zbekiston tasviri san'atining vujudga kelishi va shakllanishidagi birinchi bosqich 1910-20- yillarga to'g'ri keladi.

**Foydalaniman adabiyotlar:**

1. Alpatov M.V. Xudojestvennoe problemo italyanskogo Vozrojdeniya. M.1975g
2. Rotenberg E.I. Isskustvo Italii epoxi Vozrojdeniya. M.1974 g.
3. Libman M.Ya. Iskusstvo Germanii XV i XVI vv. M.1964.
4. Alpatov M.V. Piter Breygel Vozrajdenie Niderlandskogo isskustva M., 1933.
5. Nessilshtraus Ts.G. Istorya zarubejnogo isskustva M., 1982



## ALISHER NAVOIYNING "XAMSA" ASARIGA TA`SVIRIY YONDASHUV

**Xaytmetov Dilshod To`rayevich**

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti BK va MYOBT kafedra mudiri.

Telefon: +99899 804 15 45

naqqosh79@gmail.com

**Mamatqulova Sitora Komil qizi**

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti magistranti.

Telefon: +99899 925 61 97

sitorairisqulova@gmail.com

**Annotatsiya:** Alisher Navoiyning asarlari doimo yuksak odob-axloq va insoniylik tuyg'ularini aks ettirgan. Ushbu maqolada Navoiyning Xamsa dostoniga tasviriy yondashilgan bo`lib, Kamoliddin Behzod va Navoiy ijodining xamohangligi yoritilgan.

**Kalit so`zlar:** miniatyura, obraz, illustratsiya, rang, mo`yqalam, Samarqand qog`ozi, naqqosh, musavvir, masnaviy, so`fiy.

Mustaqillikning ilk davrlaridanoq inson shaxsiga e'tibor qaratilib har bir shaxsni komil qilib shakkantirishga alohida urg'u berilayotganini inobatga olsak, bu jarayonda Navoiy asarlari bizga dastur-ul amaldir. Navoiyning epik talanti avvalo shunda ko'rindiki u ellik mingga yaqin misradan iborat bu buyuk asarni kundalik ishlaridan, xususan davlat ishlaridan uzilmagan holda juda qisqa bir muddat ichida yozib tugallagan. Navoiyning shoh asari besh qismidan iborat, bular "Hayrat ul-abror" ("Yaxshilar hayrati"), "Farhod va Shirin" va "Layli va Majnun", "Sabbai sayyor", ("Yetti sayyora"), "Saddiy Iskandariy" ("Iskandar devori") dostonlaridir. Navoiy ijodining yuksak cho`qqisini shubhasiz uning "Xamsa"ga kirgan dostonlari tashkil etadi. "Xamsa" dostonini vujudga kelishi o`zbek adabiyoti tarixida eng katta va ulug' voqeа bo`ldi deb aytak bo`ladi. "Xamsa" tufayli o`zbek adabiyoti jahon adabiyotida eng yuqori o`rinlardan birini egalladi. Shu o`rinda ayтиб o`tish kerakki san`atda inson obrazi jamiyat taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, mazkur davrga xos insonlarga munosabatlarni belgilovchi axloqiy va estetik tasavvurlar bilan uzbek bog`langandir. Miniatyura sharqning ulkan adabiyoti obrazlarini rangin tajassumidir. O`rta asrlar masnaviylari, dostonlari, salnomalari mazmuni va o`ziga xosligi, tuzilishi san`atning ana shu yo`nalishi ya`ni miniatyurada jonli o`z ifodasini topadi. Musavvirlar sharq klassik adabiyoti asarlardan ulkanlarini maxsus badiiy vositalar yordamida ifoda etganlar. Biz Navoiy "Xamsa" asariga tasviriy yondashar ekanmiz birinchi navbatda Kamoliddin Behzod miniatyuralariga alohida to`xtalamiz. Mavarounnahr va Xurosonda XV asrdagi Renessans (Uyg'onish davri) vakillaridan biri, Navoiyning shogirdi, "Sharq rafaeli" nomi bilan mashhur ulug' miniatyurasoz musavvir Kamoliddin Behzod "Xamsa" asariga miniaturalar ishlagan. Nafaqat musulmonlar sharq xalqlari, balki butun dunyo xalqlari san`ati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyotiga o`zining barakali hissasini qo'shgan zabardast musavvir Kamoliddin Behzod musavvir Mirak Naqqosh qo`lida saboq oladi va Navoiyning nazariga tushadi. Husayn Boyqaro Behzodga saroydan maxsus joy ajratib ijodiy ishlar bilan shug`ullanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilib beradi. 1487-yilda esa Behzod sulton Husayn Boyqaroning shaxsiy farmoni bilan Hirotdagi saltanat kutubxonasi boshliq etib tayinlanadi. Kamoliddin Behzod saroyda faoliyat yuritgan kezlarida ham turli ijodiy ishlar, sulton Husayn Boyqaroga atab juda ko`plab asarlar yaratdi. Behzodni "Xamsa" asariga ishlagan juda ko`p miniatyura asarlari hali hanuz o`z go`zalligini yo`qotmay yaxshi saqlanib kelinmoqda. Asarlar samarqand qog`oziga ishlangan bo`lib tabiiy bo`yoqlar hamda asl tilla ranglar bilan ishlanganligi ularga o`zgacha jilo va o`sha davr ruhini beradi. Xuddi miniatyuralar kecha tugatilgandek ranglari juda nafis, hamda jozibalidir. Navoiy va shu yo`nalishda ijod qilgan shoirlar tasvirlagan Majnunni ko`pgina xatti-xarakatlari so`fiylar hayoti tarzini eslatadi, biz buni Behzod chizgan miniatyuralarda o`z ifodasini ko`rishimiz mumkin. "Xamsa" asariga ishlangan miniatyuralarda ayniqsa Layli va Majnun dostoniga ishlangan miniatyuralarda ko`proq ochiq osmon ostidagi tabiat, cho'l, dov-daraxtlarni to`g' bag`rida tosh va turli o'simliklarni uchratamiz. Bularning barchasi mohir musavvir tomonidan maromiga yetkazib ishlangan. "Layliga otasini nasihat" "Layli tengdoshlari bilan mакtabda" deb nomlangan illustratsiyalarda o`sha



zamon ruhini bermalol his qilish mumkin, chunki asarlarda davr me'morchiligidan binolar qaysi uslub bilan ishlanganlidan tortib hattoki gilam va ko'rpacha naqshlariga ham juda katta e'tibor bilan yondashilgan. Kiyimlari va erkaklar choponlari hamda sallalarini o'ralish uslublari ham musavvir Kamoliddin Behzod tomonida maromiga yetkazib ishlangan. Asarlarni takrorlanmas bebafo tomonlari ko'p, chunki mana necha asrlar o'tib hali-hanuz san'at ixlosmandlarini o'ziga tortib kelmoqda asarda ishlatilgan bo'yoqlar tabiiy, shu paytgacha o'z jozibasini yo'qotmaganini ko'rishimiz mumkin. Qog'ozlar esa Samarqand qog'ozlari bo'lgan, u tabiiy tut daraxtidan olingan. Bo'yoqlar va chizish uchun qamish, mo'yqalam va kistlar musavvir tomonidan yasalgan. Barcha mahsulotlar tabiiy yo'l bilan olinganligi sababli balki asarlar o'z ko'rinishini yo'qotmay shu kungacha yaxshi saqlanib kelinmoqda. Behzod ishlagan ko'plab miniatyuralar Rossiya milliy kutubxona fondida saqlanib kelinayotgan hamda Hindiston muzeylarida saqlanayotgan Kamoliddin Behzodning "Xamsa" asariga ishlangan miniatyuralari singari musavvirning boshqa asarlari ham har-xil sabablarga ko'ra turli chet el mamlakatlariga olib chiqib ketilgan va mashhur muzeylardan o'rinn egallagan. Birinchi prezidentimiz tashabbuslari 2000-2001-yillarda an'ana va qadriyatlarni, milliylikni qayta tiklash sabablari bilan bizdan olib chiqib ketilgan san'at asarlarini qayta tiklash sabablari bilan bir guruhan rassomlar turli chet el muzeylariga borib asl san'at asarlariga qarab ya'ni birga bir qilib nusxa olib kelishgan. Bular jumlasidan "Rossiya milliy kutubxona" fondida saqlanayotgan Alisher Navoiy "Xamsa" asariga Kamoliddin Behzod tomonidan ishlangan miniatyuralar ham o'rinn olgan. Bulardan "Layliga otasini maslahati", "Layli va Majnun", "Layli va Majnun matabda" asarlaridan to'laqonli nusxalar olib kelingan va hozirda bu asar "Kamoliddin Behzod nomidagi sharq miniatyura san'ati muzeyi" zalidan o'rinn egallagan. "Xamsa" asariga ishlangan miniatyuralarni orasida kim tomonidan chizilganligi aniqlanmagan "Hayrat ul-abror" asarida "Sher va Durroj", "Ikki vafolik yor" hikoyalariga ishlangan miniatyuralarni insonga tarbiyaviy ahamiyati ham bor. Asarda kompozitsion yechim topilgan, ranglarda ham o'sha zamon ruhiyati aks etgan. Asar qahramonlari markazda joylashgan bo'lib qizil, oxra, ranglarda aniq tasvirlangan, osmon qismida tilla ranglardan foydalanilgan. Baland tog'lar esa pushti ranglarda turlanlangan, shuning uchun ham asar qahramonlari tomoshabinlarga yaqqol ko'rindi. Har tarafga qarab o'sgan daraxt shohlarida Durroj qizil rangda tasvirlangan va quyi qismida ona sher bolasini og'zida tishlab yurgan holati chizilgan. Navoiy asarlariga ishlangan san'at asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, taniqli musavvir Chingiz Ahmarov tomonidan ishlangan asarlarni ham aytib o'tishimiz kerak. Chingiz Amarov chizgan suratlarda biz "Yetti go'zal", "Navoiyni yoshligi" va "Navoiy va Lutfiy suhbatii" asarlarini mohirona ishlanganligini ko'ramiz.

#### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. "Sharq Miniatyurasi va adabiyoti" E.A.Poliakova, Z.I.Rahimova.
2. "G'afur G'ulom" nomidagi Adabiyot va san'at nashiryoti" TOSHKENT 1987-yil.
3. "Xamsa" Alisher Navoiy A.Hojiahmedov. Yangi asr avlodи Toshkent 2016-yil.
4. "Temuriylar va Boburiylar davri tasviri san'ati" A.Madraimov.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 29-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(14-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000